SAMARALI IJRO INTIZOMINI YO‘LGA QO‘YISHDA TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI



Yoqubov Latifjon Baxodirjon o‘g‘li
Jizzax viloyati hokimligi Ijro intizomi nazorati bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya

Ushbu maqolada ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha mavjud muammolar va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifalarning yechimi beriladi. Xususan, hokimiyat organlarida ijro intizomini yo‘lga qo‘yishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni haqida aniq takliflar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: ijro intizomi, shaffoflik, texnologiya, texnologik zanjir, “edo.ijro.uz”, mas’uliyat, nazorat mexanizmlari.

Аннотация

В данной статье предложено решение существующих проблем и задач, которые необходимо реализовать в целях укрепления исполнительской дисциплины. В частности, высказываются конкретные предложения о роли современных технологий в установлении исполнительской дисциплины в органах власти.

Annotation

This article provides a solution to existing problems and tasks to be implemented in order to strengthen enforcement discipline. In particular, specific suggestions are made about the role of modern technologies in establishing executive discipline in authorities.

Muhtaram yurtboshimizning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida: “Biz boshqaruv sohasida birinchi navbatda ijro hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirish, kadrlar, moddiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha aniq mezon va tartiblarni joriy etishimiz zarur”[71] deb alohida ta’kidlab o‘tdilar.

Shuningdek, Davlat rahbarimiz 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomada: “Islohotlarimiz xalqimizning kundalik hayotida o‘z ifodasini topishi, kutgan natijalarimizga erishish ko‘p jihatdan davlat boshqaruvidagi samaradorlikka bevosita bog‘liq”[72] deb ta’kidladilar.

Shu sababli, O‘zbekiston Respublikasida qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etish va monitoring qilishning ta’sirchan tizimini yaratish, bu masalada davlat boshqaruvi organlari rahbarlari hamda barcha darajadagi hokimlarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish maqsadida 2021 yilning 10 fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6166-son Farmoni hamda 2021 yil 31 maydagi ““Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5132-son qarori qabul qilindi.[73]

Mazkur normativ hujjatlar davlat idoralari va tashkilotlarining ijro tizimida temir intizom o‘rnatishga huquqiy zamin yaratdi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharririning O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining maslahatchisi R.V.Abduqodirov bilan suhbati yuqorida ta’kidlangan Farmonda ko‘tarilgan va respublika boshqaruv organlari hamda hokimliklari oldida turgan tizimli vazifalarning muhimligi va ahamiyati xususida bo‘lgan.

Xususan bosh muharrirning Farmonni qabul qilishning asosiy mohiyati va sabablari haqida so‘zlab bersangiz. Ushbu masalalarga avval qabul qilingan qonunchilik hujjatlarida alohida e’tibor

---

[71] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “O‘zbekiston” NMIU, 2018. 24-bet

[72] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil. www.president.uz

[73] www.lex.uz

qaratilmaganmi degan savoliga R.V.Abduqodirov shunday deydi: “Bu savolga javob berish uchun tarixga murojaat qilish zarur.

Birinchidan — 1999 yil 12 yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 12-son qarori qabul qilindi. O‘tgan yillar mazkur hujjatni qabul qilishning maqsadga muvofiqligini, boshqaruv organlarining ishlash amaliyoti va bu borada erishilgan natijalar esa — ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan mexanizmlar, shakllar va usullar o‘z samarasini berayotganini yaqqol tasdiqladi.

Ikkinchidan — 2016 yil mamlakatda yangi zamonaviy O‘zbekistonni rivojlantirish bo‘yicha boshlangan tub o‘zgarishlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari va topshiriqlari samarali va natijali ijro etilishi hamda ijro intizomini yanada mustahkamlash uchun Vazirlar Mahkamasi va uning komplekslari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda barcha darajalardagi hokimliklar rahbarlarining shaxsiy javobgarligini oshirish masalasini kun tartibiga olib chiqdi va buni alohida ta’kidlash o‘rinlidir.

2017 yil yanvarda Hukumatning 2016 yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlariga bag‘ishlangan majlisida Vazirlar Mahkamasi kompleksining har bir rahbariga, Hukumatning aksariyat a’zolari va hududlar hokimlariga prinsipial hamda qat’iy baho berildi. Majlisda shaxsiy intizom, mas’uliyat va tashabbuskorlikning yo‘qligi jiddiy kamchiliklar va xatoliklar asosini tashkil qilishi alohida ta’kidlandi. Shundan so‘ng davlatimiz rahbari tomonlaridan 2017-yil 11-aprelda PQ-2881-son maxsus qaror qabul qilindi. Alohida o‘tkazilgan majlisda Hukumatning barcha rahbarlari va a’zolari, davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari rahbarlari hamda respublika hududlari hokimlari ushbu muhim hujjatning mutlaqo yangi yondashuvlari bilan tanishtirildi.

O‘tgan besh yil Prezidentimizning tashabbuslari bilan qabul qilingan chora-tadbirlarning maqsadga muvofiqligi va zarurligini qat’iy isbotladi. 2016-2021-yillarda zamonaviy boshqaruv usullarini amaliyotga joriy etish, ijroni nazorat qilish va tekshirish shakllarini takomillashtirish, talabchanlikni kuchaytirish borasidagi amaliy ishlar, shuningdek, rahbarlar shaxsiy mas’uliyatini oshirish bo‘yicha qabul qilingan qat’iy chora-tadbirlar davlat qurilishining serqirra vazifalarini bajarish, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni chuqurlashtirish, bugungi murakkab sharoitlarda respublikani barqaror va jadal rivojlantirishning kafolati bo‘ldi.

Uchinchidan — hayot bir joyda to‘xtab turmaydi, balki oldimizga yangi va yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu yilning 18 yanvarida davlatimiz rahbari kengaytirilgan selektor majlisida O‘zbekistonni rivojlantirishning zamonaviy bosqichida muhim tub o‘zgarishlar sifatida qonunchilik hujjatlarining ijrosini samarali tashkil etish bo‘yicha kompleks vazifalarni yana bir bor aniq belgilab berdilar”.[74]

Ijro intizomining samaradorligi davlat boshqaruvini yuksaltirish, Davlat rahbari topshiriqlarini barvaqt va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash, davlat boshqaruvida tashkiliy intizomni saqlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shuningdek, mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali ijro intizomini yo‘lga qo‘yish - boshqaruvni kuchaytirish, mas’uliyatni ta’minlash, fuqarolarga xizmat ko‘rsatishni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ta’kidlangan qaror bilan, 2021 yil 1 maydan boshlab barcha davlat organlari va tashkilotlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ijroni nazorat qilish, nazorat kartotekalarini yuritish va hisobotlarni shakllantirish faqat “Ijro.gov.uz” tizimida amalga oshirilishi belgilab qo‘yildi.

Shu sababli, 2021 yilda “edo.ijro.uz” yagona elektron hujjatlar almashish tizimi ilk bor Jizzax viloyatida faoliyati yo‘lga qo‘yildi hamda bugungi kunda samarali faoliyatini davom ettirib kelmoqda. Yangi tizim ijro intizomini mustahkamlash, sohaga yagona elektron hujjatlar almashish amaliyotini joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda amaliy faoliyatda o‘z isbotini topib kelmoqda.

74 “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharririning Vazirlar Mahkamasi apparatining boshqaruvchisi R.V. Abduqodirov bilan suhbati. www.yuz.uz

Jizzax viloyati hokimligi tomonidan “edo.ijro.uz” yagona elektron hujjatlar almashish tizimi orqali Davlatimiz rahbarining topshiriqlari hisobini yuritish, nazorat qilish va belgilangan muddatidan avval ijrosini ta’minlash yo‘lga qo‘yilgan. Topshiriqlarning ijrosini joylarda to‘liq ta’minlanishi yuzasidan manzilli ishlar amalga oshirilmoqda. Ya’ni, kelgusi davrda ijrosi ta’minlanadigan topshiriqlarni viloyat hokimligi kotibiyatlari va guruhlar kesimida ijrochilari aniq belgilangan holda manzilli ro‘yxati hamda hisoboti tayyorlanib, mas’ullarga taqdim etish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi va doimiy nazorati olib borilmoqda.

Ta’kidlab o‘tish joizki, viloyatda Davlatimiz rahbari topshiriqlari ijrosini ta’minlash vertikal tizim asosida tashkil etilgan. Ya’ni, viloyat hokimligida Davlatimiz rahbari topshiriqlari tegishli o‘rinbosarlarga, o‘rinbosarlar tomonidan boshqarma va tashkilotlar hamda Jizzax shahar va tumanlar hokimliklariga, joylardagi eng quyi bo‘g‘in boshqaruvigacha yuborilib, ijroni ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mahalliy davlat hokimiyati organlarida ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha ayrim muammolar ham mavjudki, biz bu muammolarni qay yechimlar orqali hal etish lozim degan savolga alohida to‘xtalib o‘tamiz.

Birinchidan, ijrochilarning shaxsiy mas’uliyatini yanada kuchaytirish zarur. Bunda, topshiriqlarning ijro etilishini avvaldan tashkil etish mexanizmini yo‘lga qo‘yish lozim. Bu esa o‘z navbatida har bir topshiriqning barvaqt va sifatli bajarilishida muhim rol o‘ynaydi.

Ikkinchidan, mahalliy davlat hokimiyati organlarida ijro intizomini ta’minlash, topshiriqlar ijrosini amalga oshirishda haqqoniylik, shaffoflik va mas’uliyatlilikni oshirishga qaratilgan o‘qish va seminarlarni oyning muayyan bir kunida tashkil etib borish lozim. Bu esa, mas’ul ijrochilarning topshiriqlarni ijro etishi borasidagi savodxonligi va tajribasi ortishiga zamin yaratadi.

Uchinchidan, mas’ullar tomonidan normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda “Kim nimani qachon qanday qilib” tamoyili asosida ishlab chiqilishiga alohida e’tibor qaratish kerak. Bu esa, har bir topshiriqning aniq mexanizm asosida bajarishga asosiy omil bo‘ladi.

To‘rtinchidan, ayrim hokimlik organlarida ijro ishini yuritish va tashkil etishda hali hamon qog‘ozbozlikdan voz kechilmagan. Ya’ni, bu yo‘nalishni to‘liq axborot texnologiyalariga asoslangan holda amalga oshirish qolib ketgan. Shu sababli, ijroni amalga oshirish, nazoratni yo‘lga qo‘yishni quyi bo‘g‘inlarda ham to‘liq axborot texnologiyasiga asoslanib, elektron tartibda yo‘lga qo‘yish lozim. Bu esa, shaffoflik, tezkorlik, samaralilikni ta’minlashda asosiy omildir.

Beshinchidan, hujjatlarning ijrosini nazorat qilish bo‘yicha yaratilgan “edo.ijro.uz” idoralararo yagona elektron tizimida doimiy ravishda yangilangan funksiyalar va afzalliklarni kiritib borish zarur. Bu o‘z navbatida mas’ul ijrochilarga yanada qulaylik yaratishga yordam beradi.

Umuman olganda, mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali ijro intizomini yo‘lga qo‘yishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o‘rni beqiyosdir. Xususan, bugungi kunda amalda foydalanilayotgan “edo.ijro.uz” yagona idoralararo elektron tizimi butun respublika bo‘ylab barcha davlat organlari va tashkilotlarida amalda foydalanilib kelinmoqda.

Ammo, bu tizimning qulayliklari, afzalliklari, zamonaviyligi, ijro ishini va nazoratni yuritishdagi foydalari haqida haligacha ko‘pgina mas’ullar bexabar. Ayrim joylarda hatto tizim yo‘lga qo‘yilmaganligi esa, topshiriqlarning barvaqt va sifatli bajarilishini ta’minlashga to‘sqinlik qilmoqda.

Mahalliy davlat hokimiyati organlarida samarali ijro intizomini tashkil etish haqida gap borar ekan, ijroni tashkil qilish, samarali nazoratni yo‘lga qo‘yish va eng muhimi, topshiriqlarni bajarishda samaradorlikka erishish zamonaviy texnologiyalarga bog‘liqdir. Shu sababli, ayrim hokimliklarda haligacha yo‘lga qo‘yilmagan yagona idoralararo elektron tizimining ishga tushirilishini tezlashtirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. “O‘zbekiston” NMIU, 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020 yil. (www.president.uz).

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarida hujjatlar bilan ishlashni tashkil etish va ijro intizomini mustahkamlash masalalari bo‘yicha metodik tavsiyalar to‘plami. Toshkent-2009, “O‘zbekiston” NMIU.

4. R.V.Abduqodirov. “Ishni jamoa bajaradi, mas’uliyat esa shaxsiy”

5. R.V.Abduqodirov. “Shaxsiy mas’uliyat, mustahkam intizom va tashabbuskorlik – samarali mehnat poydevori”

6. www.president.uz

7. www.lex.uz

8. www.yuz.uz